



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 10 oktyabr

№ 1829

### O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

**Ismailov Nozimjon Rustamovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Namangan viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Chust tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Chirchiq tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**G‘ofurov Sherzod Shavkatovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga, shundan besh yil muddatga Navoiy viloyati Zarafshon tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga tayinlansin;

**Askarov Ravshanbek Gafurovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga, shundan besh yil muddatga Andijon viloyati Izboskan tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga tayinlansin;

**Jurayev Nozimjon Sattorovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga Buxoro viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

**Bozorova Shohida Oripovna** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga, shundan besh yil muddatga Buxoro viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Romitan tumanlararo sudining raisi lavozimiga tayinlansin;

**Kayumov Muxammad Voxidovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tuman sudining sudyasi lavozimiga tayinlansin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov